SAMARQAND VILOYATI BULUNG‘UR TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 10-aprel | 80-7-93-Q/25 | Bulung‘ur tuman hokimligi

Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 7-apreldagi 100-7-0-Q/25-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-103-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi qarori to‘g‘risida

Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy faolligini oshirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 7-apreldagi 100-7-0-Q/25-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-103-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan 2025-yilda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi (Sh.Eshquvvatov):

muntazam ravishda hududlarga chiqib, tadbirkor xotin-qizlarning muammolarini o‘rganish va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishini;

tadbirkor ayollarning ilg‘or tajribalarini boshqa hududlarda ommalashtirishga ko‘maklashishni;

avval tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlab, ularning muammolarini hal qilish va biznes g‘oyalarini amalga oshirishga ko‘maklashishni;

tizimli muammolarni hal qilish yuzasidan tuman hokimligiga takliflar kiritib borilishini ta’minlasin.

4. Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi (Sh.Eshquvvatov), tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi bilan birgalikda:

“Biznesga ilk qadam” yo‘nalishida biznes ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan tashabbuskor xotin-qizlarni aniqlash va ularni tadbirkorlik asoslariga o‘qitish ishlarini tashkil qilsin;

“Biznesni yuksaltirish” yo‘nalishida “Chempion tadbirkorlar” dasturi doirasida eng faol ayol tadbirkorlar bilan manzilli ishlab, ularning yillik aylanmasini kamida 100 milliard so‘mgacha olib chiqishga ko‘maklashsin.

5. Tumandagi tijorat banklari “Biznesni yo‘lga qo‘yish” yo‘nalishida – o‘zini o‘zi band qilgan xotin-qizlarga o‘rnatilgan tartibda kichik tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ko‘maklashsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari (N.Mamadiyarova) ilovada belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar ijrosi belgilangan muddatda va to‘liq bajarilishini ta’minlash bo‘yicha ishlarni tashkil etsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Ibragimov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.Astonov**

Bulung‘ur tumani hokimining
2025-yil 10-apreldagi
80-7-93-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Bulung‘ur tumanida 2025-yilda aholini, shu jumladan xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan ta’minlashning MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

Hudud nomi jami bandligi ta’minlanadiganlar soni		shundan xotin-qizlar	Shu jumladan sohalar kesimida:																	
			Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi		Tijorat banklari		Shu jumladan banklar kesimida:										O‘zbekiston fermerlari kengashi tuman bo‘limi		Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	
							Turon bank		Mikro kredit bank		Xalq bank		Milliy bank		Agro bank					
			jami	shundan xotin-qizlar	jami	shundan xotin-qizlar	jami	shundan xotin-qizlar	jami	shundan xotin- qizlar	jami	shundan xotin-qizlar	jami	shundan xotin-qizlar	jami	shundan xotin-qizlar	jami	shundan xotin-qizlar	jami	shundan xotin-qizlar
Bulung‘ur tumani	19 474	7 652	855	197	13 765	4 967	2715	980	2700	947	2 600	980	2850	960	2900	1100	4 383	2 455	471	33